
SAYYOR QABUL – MUAMMOLAR YeCHIMI

!!Fuqarolarning muammolarini eshitish, ularga atroflicha yechim topish orqali roziligiga erishishni maqsad qilgan "Sayyor qabul"lar davom etmoqda.

Rishton tuman DSI rahbarligida navbatdagi sayyor qabuli Toshog'oiq mahallasida o'tkazildi.

Qabul davomida aholining murojaatlari tinglanib 15 nafardan ortiq fuqoralar tomonidan kelib tushgan murojatlar joyida o'rganib chiqildi. Sayyor qabulga kelgan fuqarolarning aksariyati ishga joylashish, kredit olish, tibbiy xizmat, davolanish, uy-joynini ta'mirlash, yo'l, ichimlik suvi, gaz bosimi kabi masalalar bo'yicha murojaat qilishdi. Fuqarolarning har bir murojaatlarini ijobiy yechimi topishi uchun, shu joyning o'zida reja tuzildi, muddat belgilandi va tegishliligi bo'yicha mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda chora-tadbirlar belgilab olindi.

Aksariyat murojaatlarda aholini qiynab kelayotgan muammolar tilga olinayotgani bugun odamlarimizning ongu tafakkuri va dunyoqarashi o'zgarib borayotganini ko'rsatmoqda. Bugungi sayyor qabul ham yurtimizda amalga oshirilayotgan "Inson qadri uchun" tamoyilini aholining davlatdan rozi holda yashashini ta'minlash va har bir fuqaroning muammolarini ijobiy hal etish yo'lidagi yana bir qadam bo'ldi. Binobarin, barcha say'-harakatlar odamlarni rozi qilish yo'lida olib borilmoqda.

2023-02-20 16:44:02